XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-noyabr VII-3-020-4-63-K/24 Mirishkor tumani

Mirishkor tumanida 2024 yil 3-chorakda mahalliy byudjetining ortirib bajarilgan mablag‘lar hisobidan tegishli sohalarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 126-moddasiga asosan tuman hokimligining Mirishkor tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini hamda fikr va mulohazalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasiga asosan xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligining Mirishkor tumani mahalliy byudjetining 2024 yil 3-chorakda mahalliy byudjetining ortirib bajarilgan mablag‘lar hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kreditor qarzdorliklarni qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bo‘yicha takliflar 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Shukurov)ga, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (SH.Nashirov)ga ushbu qarorga asosan mahalliy budjet xarajatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va ajratilgan mablag‘ni o‘z vaqtida moliyalashtirib berishni ta’minlasinlar.

3. Ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishni tuman hokimligi bosh bosh hisobchisi (A.Valimuhammedov) dan talab qilinsin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Sariqovlar zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

G‘ULOMOV
FAYZULLO
QURBONOVICH

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 29-noyabrdagi
VII-3-020-4-63-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tumanida 2024 yil 3-chorakda mahalliy byudjetining ortirib bajarilgan mablag‘larni tegishli sohalarga yo‘naltirish to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Mablag‘ chiqarish maksadi	Talab etiladigan (mln.so‘m)	Mablag‘ oluvchilar nomi
1	Tashabbusli budjet jamg‘armasiga 2-chorak qarzdorligi uchun	852	Tuman hokimligiga
2	Tashabbusli budjet jamg‘armasiga 3-chorak uchun	1500	Tuman hokimligiga